



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 224 sahifa,
27-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
<i>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	16
<i>Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon</i>	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов	19
<i>Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
<i>Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi</i>	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi	29
<i>Sattarov Farrux Nuridinovich</i>	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish	35
<i>D. K. Ibadullayev</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	41
<i>Isabekova Dilafruz Shermirzayevna</i>	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
<i>Юсупова Элеонора Фердинандовна</i>	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik	51
<i>Matyaqubova Nazira Hikmat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
<i>Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li</i>	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL)	60
<i>M. D. Boynazarova</i>	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки	63
<i>Нормуратов Абдулла Саппарович</i>	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
<i>Normuratov Abdulla Sapparovich</i>	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari	70
<i>Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
<i>Omonova Charos Baxodir qizi</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
<i>Saidova Zulfizar Norbobo qizi</i>	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
<i>Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna</i>	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida	91
<i>Abdullayev Botir Jabbor o'g'li</i>	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
<i>Abdumannan Maxammatov</i>	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi”	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimulning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari	198
Salomov Abdurasul Axmadovich	
Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi	201
Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaevna Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev	
Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari.....	205
Sojida Safarova Saxadin qizi	
Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida.....	207
Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	210
Xoldorova Mashxura G'ulomovna	
Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов	214
Нурбаев Бахтиёр Широнович	
Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari.....	217
To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna	



MAKTAB O'QUVCHILARINING MUSIQIY IDROKNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY VA DIDAKTIK ZARURATI

Abdumannan Maxammatov
 JDPU katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilarining musiqiy idrokini shakllantirishning mazmuni, mohiyati, maqsadi, vazifalari va uning o'ziga xos komponentlari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa madaniyati, musiqiy idrok, sezgi, hissiyot, tafakkur, did, eshitish, qobiliyat, musiqa tinglash, musiqa savodi, usul, shakl, vosita, metod.

Abstract: This article examines in detail the content, essence, purpose, objectives, and specific components of school-children's musical perception.

Key words: musical culture, musical perception, intuition, feeling, thinking, taste, hearing, ability, listening to music, musical literacy, method, form, means.

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются содержание, сущность, цель, задачи и специфические компоненты музыкального восприятия школьников.

Ключевые слова: музыкальная культура, музыкальное восприятие, интуиция, чувство, мышление, вкус, слух, способность, слушание музыки, музыкальная грамотность, метод, форма, средство.

KIRISH

Inson shaxsini shakllantiruvchi eng muhim omillardan biri ta'lim-tarbiyadir. Estetik tarbiya uning tarkibiy qismi sifatida go'zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning uyg'unligini ifodalaydi. Musiqa san'atining insonni ma'naviy, axloqiy, milliy, badiiy-g'oyaviy shakllanishidagi ahamiyatiga ko'ra estetik tarbiyaning maqsadi o'quvchi-yoshlarni go'zallikni ko'ra bilish, uni his etish, go'zallik qonunlariga ko'ra yashash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat va muhabbatni qaror toptirishdan iborat.

Shu bilan birga, musiqa inson ongiga, his-tuyg'ulariga, tasavvuriga, e'tiqodiga, dunyoqarashi va xulq-atvoriga beqiyos ta'sir ko'rsatadi. Musiqa san'atining inson ruhiyatiga ta'sir qilishining keng imkoniyatlari haqida qadimdan mutafakkir olimlar, faylasuflar, pedagog-psixologlar, musiqashunoslar o'z ilmiy asarlarida alohida to'xtalib, muhim fikrlar bildirganlar. Shu bois ta'limning barcha bo'g'inlarida musiqa ta'limi va tarbiyasini maqsadga muvofiq tarzda yo'lga qo'yish yosh avlodning ichki dunyosi, estetik didi, tafakkuri va musiqa idrokini shakllantirishning samarali yo'li hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Musiqa san'ati ifodali san'at turlaridan biri bo'lib, u voqea-hodisalarni musiqiy tovushlar (ohanglar) vositasida aks ettiradi. Ammo u me'morchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo o'lchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqa asosan eshitish orqali idrok qilinadi. Musiqa mavzu jihatidan inson va voqelikdagi barcha tomonlarni to'liq qamrab ololmasa-da, avvalo insonning ma'naviy dunyosini, uning tuyg'u va kayfiyatini ifodalaydi, voqelikning hissiy qiyofasini yaratadi¹ [7, 210-b.].

Musiqa "tili" barcha qismlarning uzviy birligini, asar shaklini ifodalaydi. Shakl musiqa mazmunining moddiy ifodasidir. Musiqa asari muallifining fikri, ichki kechinmalari, tuyg'ulari va tasavvurlari tinglovchilarga aynan musiqiy shakl orqali yetib boradi. Shu bois musiqa "tili"ni egallash, uning mazmun-mohiyatini anglash va idrok etish, musiqiy asarda ifodalangan fikrlar hamda tuyg'ular boyligini o'zlashtirishga keng imkon yaratadi.

1 E.Umarov. Estetika. Toshkent, O'zbekiston, 1995-yil, 210 bet.

Musiqiy-estetik tarbiya ta'sirining eng muhim xususiyati, avvalo, musiqiy asarning g'oyaviy mazmuniga bog'liqdir. Musiqa kishiga har tomonlama ta'sir etar ekan, kuy, qo'shiq va uning musiqiy ifodasi inson hissiyotiga chuqur ta'sir etib, unda turli emotsional holatlarni uyg'otadi, xilma-xil kayfiyatlarni hosil qiladi. Asarning g'oyaviy mazmuni nafaqat hissiyotga, balki tinglovchining ongiga ham ta'sir qilib, uni hayajonlantiradi, fikrlashga undaydi hamda asarda aks etgan muammolarga nisbatan muayyan munosabatni shakllantiradi.

Rus olimi Yevgeny Nazaykinskiy "Musiqani idrok etish psixologiyasi haqida" asarida musiqiy idrokni musiqashunoslik, musiqa nazariyasi va estetikasi (kuy, lad, ritm, janr, asarning tasviri va konstruktiv o'zaro munosabati, kompozitorlik va ijrochilik vositalarining uyg'unligi) nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Bu o'rinda xalq musiqasi, zamonaviy professional musiqa, mumtoz va maqom musiqasining eng yaxshi namunalari asosida tarbiya topgan tinglovchining estetik idroki asos qilib olinadi². Aynan shu jarayon musiqiy idrok sifatida namoyon bo'ladi.

Musiqashunoslik taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, musiqiy psixologiya musiqa qonuniyatlarini chuqur bilish, uning tabiati, ifodaviy vositalari va xususiyatlarini o'zlashtirishning muhim shartlaridan biridir. Biroq turli ilmiy tarmoqlar kesishgan ushbu masalalarda mutaxassis olimlar bir tomondan musiqachi-nazariyotchilar, ikkinchi tomondan esa musiqiy tarbiya muammolari bilan shug'ullanuvchi psixolog olimlar faoliyatining o'zaro bog'liqligiga alohida e'tibor qaratadilar.

Rus pedagog olimi Nina Vetlugina "...musiqiy kechinmalar aslida doimo sensor qobiliyatga asoslanadi, chunki musiqa eng oddiy ohanglardan tortib murakkab obrazlargacha, avvalo hissiyot orqali idrok etiladi va shu asosda musiqiy qobiliyat rivojlanadi"³ [2] deb ta'kidlaydi. Shu sababli respublikamizdagi har bir umumta'lim maktabida musiqiy-estetik tarbiyaga shaxsni shakllantiruvchi muhim pedagogik omil sifatida qaralmoqda. Hozirgi paytda pedagog va psixologlar o'z ilmiy tadqiqotlarida o'quvchilarda musiqani his qilish va tushunish qobiliyatini rivojlantirish masalasiga dolzarb muammo sifatida alohida e'tibor qaratmoqdalar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Musiqa mashg'ulotlarida (dars, sinfdan tashqari madaniy-ma'rifiy tadbirlar jarayonida) o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy shakllari tahlili, eng avvalo, kuy va garmoniyani idrok etish hamda ajratib ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Bu o'rinda uchta qobiliyatni rivojlantirish muhim: Musiqiy eshitish qobiliyatining perseptiv va emotsional qismi hisoblangan lad hissi, ya'ni kuy va tovushlarning lad vazifasini emotsional his qilish yoki tovushlarning kuy harakati (yuqoriga-pastga)ni emotsional-perseptiv tarzda idrok etishdir. Lad hissi musiqiy tovushlarning balandligini his etish va bevosita kuyni anglash, intonatsiyalarni sezish jarayonida namoyon bo'ladi. Musiqa ta'limi va tarbiyasining reproduktiv yoki idrok etish qismi, ya'ni musiqiy eshitish qobiliyati. U lad hissi bilan birgalikda uyg'unlikni (garmoniya) his qilishga yordam beradi. Bu qobiliyat musiqiy xotira va musiqiy tasavvurning asosiy negizidir. Musiqiy eshitish qobiliyati musiqani to'liq idrok etish qobiliyatidir.

Shu o'rinda musiqiy eshitish qobiliyati turlari haqida to'xtalib o'tish lozim:

- mutlaq eshitish qobiliyati – musiqiy tovushlarning mutlaq balandligini etalonlari bilan solishtirmagan holda aniqlash qobiliyati;
- nisbiy yoki interval eshitish qobiliyati – kuy, intervallar, akkordlardagi tovushlar soni, ular orasidagi masofa (interval) va tovushlar balandligini sezish, aniqlash va ijro etish qobiliyati;
- ichki eshitish qobiliyati – musiqaning butun tarkibiy qismini xayolan tasavvur qila bilish qobiliyati.

Bu qobiliyatlar to'g'ri tashkil qilingan musiqiy faoliyat jarayonida muayyan darajada rivojlanib boradi. Bunda solfedjioning o'rni va ahamiyati alohida e'tiborga loyiq (solfedjio darslari ixtisoslashgan musiqa maktablarida alohida fan sifatida o'tiladi).

Musiqa pedagogikasi nazariyasi va amaliyotiga asoslangan holda shuni aytish joizki, musiqiy qobiliyatlar va ularni rivojlantirish muammosi pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Bu qobiliyatlar rivojlanishi zamirida musiqiy did, idrok va tafakkurning rivojlanishi ijtimoiy muhit, oila, ta'lim-tarbiya, tabiatan berilgan iste'dod, iqtidor, shaxsning irodaviy kuchi, faolligi hamda jismoniy va aqliy jarayonlarga bog'liqdir. Demak, o'quvchi-yoshlarda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish orqali ularda musiqani idrok etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga zamin yaratiladi. Bu masala bo'yicha hozirgi kunda ta'lim-tarbiya tizimi, sohada faoliyat yuritayotgan pedagog-murabbiylar zimmasiga o'ta mas'uliyatli vazifalar yuklanadi. Musiqiy eshitish qobiliyatining shakllanishida qo'shiq aytishning muayyan ta'sirini asoslovchi dalillar yetarli darajada bo'lsa-da, musiqa tinglash shakllarining (qo'shiq kuylash, musiqa cholg'ularida chalish, musiqali raqs va ritmik harakatlar) "ichki sezish" bilan bog'liq jihatlari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

2 Ye.V. Nazaykinskiy "Musiqani idrok etish psixologiyasi haqida".

3 Ветлугина Н.А. *Музыкальное развитие ребенка*. – М.: Просвещение, 1988.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'quvchilar biror qo'shiqni kuylash, kuyini tinglash jarayonida musiqaning rang-barang tovushlari, ifoda vositalari – temp, lad, o'lchov, ritm, dinamika kabilarni, shuningdek, asar xarakteri va kayfiyatini farqlash, kuylangan, tinglangan musiqiy asarlarning qaysi janrga mansubligi, ya'ni zamonaviy kompozitorlik, xalq, mumtoz va maqom, estrada, qardosh hamda chet el musiqasi ekanligini hissiy-emotsional jihatdan idrok etishlari musiqiy-estetik tarbiyaning maqsad va vazifalarida aniq bayon qilingan. Shunday maqsadga erishilgandagina musiqa madaniyati oldiga qo'yilgan ta'limiy-tarbiyaviy maqsad va vazifalarga erishilgan bo'ladi. Musiqiy idrok, musiqiy did, musiqiy dunyoqarashning shakllanishi musiqa mashg'ulotlaridan tashqari, to'g'araklar, sinfdan tashqari ishlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlarning qay darajada o'tkazilishi, oiladagi muhit, oilaning musiqa san'atiga qanday munosabatda bo'lishi bilan ham g'oyatda muhimdir. Inson hissiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning muayyan shart-sharoit bilan bog'liqligidir, ya'ni inson shaxsida sodir bo'ladigan hissiy kechinmalar aniq bir sharoitdagina vujudga keladi. O'quvchi musiqa darslarida musiqaning g'oyaviy-badiiy mazmuni, xarakteri, lad-tonalligi, shakli, qaysi ijodkorlik mahsuli ekanligini idrok etar ekan, idrok etilayotgan narsaga nisbatan sezgi a'zolaridan birortasi asosiy o'ringa chiqadi. Masalan, rasm chizganda ko'rish sezgisi faol namoyon bo'lsa, musiqa tinglashda eshitish sezgisi bosh o'rinda turadi.

Idrok etishda sezgi a'zolarining bir nechtasi ham ishtirok etishi mumkin. Ta'lim jarayonida o'quvchining musiqiy nazariy va ijrochilik malakalari to'g'ri yo'lga qo'yilgan, aniq maqsadga yo'naltirilgan faol musiqiy jarayondir. Bu jarayonda musiqiy rivojlanish quyidagicha kechishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- musiqaqa hissiy munosabatning shakllanishi, oddiy musiqiy tasavvurdan murakkab va ko'p tomonlama rivojlangan musiqiy asarlarni idrok etish;
- musiqiy eshitish qobiliyatining shakllanishi, bunda musiqa asarining tovush baland-pastligi, tembri, o'lchovi, ladi, ritmini his qilish, musiqaning ifoda vositalarini bilish;
- musiqiy ijrochilik va ijodkorlikning shakllanishi, o'quvchining muayyan asarlarni notaga qarab kuylay olishi, ijro etishi hamda o'zining musiqiy-nazariy va amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalariga tayangan holda o'ziga tanish bo'lgan musiqa matni yoki raqs harakatlarini ijro etishi, improvizatsiya qilishi.

Musiqa darslarining qaysi faoliyat turida bo'lmasin – musiqa tinglash, jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, musiqa savodi yoki musiqaqa mos raqs va ritmik harakatlarni bajarish va bolalar musiqa cholg'ularida jo'r bo'lish – bularning barchasi o'quvchilarning musiqani tushunish, idrok etish, musiqani tinglay bilish, uni baholay olish, musiqiy did va musiqiy tafakkurini rivojlantirish orqali o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini, musiqiy dunyoqarashi va madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktab ta'limida musiqa darslarini pedagogik va metodik tomondan to'g'ri yo'lga qo'yishda quyidagi jihatlarga e'tibor berish alohida ta'kidlanadi:

- darslarning aniq maqsadga yo'naltirilganligi;
- dars tuzilishi va rejalashtirilishining aniqligi hamda o'tilayotgan mavzu materialini mazmuniga muvofiqligi;
- o'rganiladigan mavzu materialini to'g'ri tanlash, bolalar yoshiga, musiqani tushunish, his qilish va idrok etish imkoniyatlariga, ovoz imkoniyatlariga (diapazon) mos kelishi nuqtai nazaridan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan (ota-ona, vatan, do'stlik, tinchlik, odob-axloq, tabiat mavzularidagi) asarlar va dars o'tishning maqbul usul hamda uslublarini tanlash;
- darsda ko'rgazmali va texnik vositalardan samarali foydalanish darslarning qiziqarli va sifatli bo'lishini ta'minlaydi;
- musiqa o'qituvchisining maxsus yo'naltirilgan ish olib borish usuli va o'quvchilar bilan munosabati, o'tilayotgan dars materialini yaxshi bilishi, cholg'uchilik mahorati va kuylash madaniyati, tahlil qilish uslubi alohida ahamiyat kasb etadi;
- musiqa o'qituvchisining o'quvchilarga estetik tarbiya berishda uzviylik va tizimlilikka erishishi;
- o'qituvchining har bir sinf va har bir bolaning o'ziga xos musiqiy sifatleri va imkoniyatlarini yaxshi bilishi;
- butun dars davomida musiqa o'qituvchisi tomonidan ma'lum bir psixologik va ijodiy muhitning yaratilishi;
- estetik xarakterdagi kechinmalarni hosil qilish; musiqa o'qituvchisining estetik, metodik, pedagogik-psixologik jihatdan dars o'tishga tayyor bo'lishi;
- ota-onalarning o'quvchilarning estetik didi, qiziqishi va hissiyotlariga e'tiborli bo'lishlari.

Musiqa ta'limida onglilik va faollik, ayniqsa, vokal-xor malakalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi faoliyatlarida musiqaning nazariy va amaliy qonuniyatlarini to'g'ri o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Musiqa ta'limida ko'rgazmali idrok etish katta imkoniyatga ega. Eslab qolishda ko'rgazmalilikning o'zi emas, balki uning musiqani amaliy faoliyat bilan birlashtirilishi muhimdir.

K. D. Ushinskiy ko'rgazmalilikning ta'limdagi samarasi haqida shunday degan: "...bu shunday bevosita idrok qilinadigan ma'lum obrazlarga asoslanadi..." [7].

Musiqa ta'limi va tarbiyasida musiqaning o'zi, o'qituvchi va akkompaniment (jo'rnavor cholg'u asbobi) ning o'zi ko'rgazmali vosita hisoblanadi. Chunki musiqa, avvalo, eshitish (quloq) orqali idrok etiladi. Musiqa tinglash, asarlarni tahlil qilish ham musiqiy ohang (tovush) ko'rgazma sifatida chalib ko'rsatiladi. Shaxsning estetik ongi, idroki, tafakkuri, didi va musiqani his qilishining tarbiyaviy qismlari ko'rinishini V. G. Mozgot o'zining ilmiy tadqiqot ishida sodda va tushunarli qilib bergan: "...zamonaviy yoshlarning estetik tarbiyasini muvaffaqiyatli shakllantirish jarayoni ijtimoiy-psixologik muhit, siyosiy, madaniy-ma'rifiy sharoitga bevosita bog'liqdir..." – deydi [2].

Shaxsning estetik ong komponentlari konsepsiyasi {V. G. Mozgot}: estetik hissiyot, milliy qadriyatlarni e'zozlash, estetika va badiiy did, idrok va tafakkur, g'oyalar. Ushbu konsepsiyalarga tayanib, biz musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida shaxsning qaysi faoliyat turida qanday shaxsiy xususiyatlari shakllanishini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

- qo'shiq kuylash faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did va musiqiy idrok shakllanadi;
- musiqa savodi faoliyatida musiqiy tafakkur, tasavvur va musiqiy dunyoqarash shakllanadi;
- musiqa tinglash va tahlil qilish faoliyatida o'quvchilar musiqani idrok etib, musiqiy asar haqida mulohaza yuritishni o'rganadilar;
- musiqa ostida ritmik harakatlarni bajarish faoliyatida o'quvchida barcha musiqiy-psixologik xususiyatlar shakllanadi;
- bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish faoliyatida o'quvchilarning barcha musiqiy-psixologik xususiyatlari shakllanadi.

XULOSA

O'quvchilar bu faoliyatda mustaqil fikrlaydilar (musiqiy tafakkur), natijada ularda musiqiy dunyoqarash, musiqiy madaniyat shakllana boradi. Mazkur faoliyatlar jarayonida bolalarda (o'quvchilarda) musiqiy idrok shakllanadi: musiqiy tafakkur, musiqiy dunyoqarash, musiqiy tafakkur, musiqiy qobiliyatlar, musiqiy his-tuyg'u, musiqiy idrok. Shaxsga bunday komponentlarning ta'sir uyg'unligi umumlashgan holda musiqa madaniyatining tarkib topishiga olib keladi: Qo'shiq kuylash faoliyatida musiqiy dunyoqarash va musiqiy did shakllanishi ustuvor o'rin tutadi. Musiqa tinglash va tahlil qilish jarayonida musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash, musiqani his qilish shakllanadi.

Musiqa savodi faoliyatida musiqiy tafakkur, tasavvur va musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Musiqaga ritmik va raqs harakatlarini bajarish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqani his qilish, musiqiy xotira shakllanadi. Bolalar cholg'u asbobida jo'r bo'lish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqani his qilish, musiqiy xotira shakllanadi. Ko'rinadiki, musiqa ta'limi va tarbiyasining qanday faoliyat turi bo'lmasin, u shaxsning barcha pedagogik va psixologik komponentlari shakllanishiga xizmat qiladi. Musiqiy dunyoqarash, musiqiy tafakkur, musiqiy did, musiqani badiiy-emotsional his qilish, musiqiy tasavvur, musiqiy xotira kabi musiqiy idrok ham eng muhim musiqiy komponentlar4dan sanaladi va musiqa ta'limi hamda tarbiyasining bosh maqsad va vazifalari jumlasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008-yil.
2. Shavkat Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Shavkat Mirziyoyev Sh.M. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori. – 2018-yil 14-avgust.
4. Abdullayev R. O'zbek mumtoz musiqasi. – Toshkent: Yangi nashr, 2008.
5. Abilov M.N. Cholg'u ijrochiligi: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2023.
6. Abilov M.N., Raimjonov S.U. Musiqa o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2025.
7. Abu Ali ibn Sino. Shifo kitobi (Musiqa ilmi haqida). – Toshkent: O'zbek milliy ensiklopediyasi, 2000.
8. Axmedov M.M. Bo'lajak o'qituvchilarni maktab o'quvchilarida musiqiy-nazariy bilimlarni shakllantirishga tayyorlash: ped. fan. nomz. diss. avtoreferati. – Toshkent, 2011.
9. Davronova G.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida hamkorlikda o'qitish texnologiyalari vositasida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish: ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Samarqand, 2024.
10. Donaboyev D. Musiqa madaniyati fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish: o'qituvchilar uchun qo'llanma. – Toshkent, 2022.
11. Fayzullayev E.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish (metodik qo'llanma). – Toshkent, 2008.
12. Fayzullayev E.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida): ped. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2010.

4 Omonqulova Sh.N. "Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini modulli o'qitish texnologiyalari asosida kasbiy kompetentligini takomillash-tirish": Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Samarqand, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.